Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319852

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

STATISTIKA FANINING TARIXIY RIVOJLANISHI VA XUSUSIYATLARI

BUTANOVA DILNOZA RUSTAMOVNA, *Phd, dotsent*
Ma'mun universiteti "Buxgalteriya hisobi"kafedrasi
butanovadilnoza@gmail.com
orcid 0000-0001-6362-680X

Kishilik jamiyati vujudga kelishi bilanoq,bir qator iqtisodiy fanlar yuzaga kelgan. Albatta ularning paydo bo'lishiga amaliy ehtiyojlar sabab bo'lgan.Shu jumladan, statistika faning yuza kelishi ham uzoq tarixiy davrga borib taqaladi. Qadim tarixdan ma'lumki, harbiy maqsadda askarlar sonini bilish maqsadida va ulardan undiriladigan soliq tulovlarini hisob - kitob qilish maqsadida aholi sonini bilishga zaruriyat tug'ilgan. Bu jarayon o'z o'rnida davlat tamonidan aholi soni darajasini va barcha demografik jarayonlarni nazorat qilishga chorlagan. Asosan agro sohada, hunarmandchilik, savdo-sotiq, sanoat va boshqa xalq xo'jaligi sohalarining doimiy taraqqiyoti bu jarayondagi voqea va hodisalarni doimiy ravishda kuzatib borishliligini taqozo qilgan hisoblanadi. Shu tufayli statistika va mazkur fanning bir qator fanlar tarmoqlari yuzaga keldi. Bozor munosabatlari va aholi mulkiy munosabatlari orasida o'zaro aloqalarning rivojlanishi natijasida aralash iqtisodiyotning keng qamrovli joriy qilina boshladi. Bu esa, davlat va jamiyat hayotida statistikaning ahamiyatini yanada muhim qilib shakllantiradi. Shu bilan birga tarixan shakllangan mehnat taqsimotining yanada chuqurlashishi asosida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, butun jahon xo'jaligining yuzaga chiqishi va taraqqiy qilib borishi natijasida milliy iqtisodiyot miqyosida daromadlar va xarajatlarni, iste'mol va jamg'arma munosabatlarini har tamonlama tavsiflaydigan hisob tizimining zaruriyatini keltirib chiqaradi. Buning natijasida bugungi zamonaviy bozor iqtisodiyoti munosabatlariga mos milliy hisobchilik shakllandi va rivojlandi.

Statistikaning tarixiy taraqqiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, davlatni smarali boshqaruv jarayoniga ko'maklashuvchi sifatida yuzaga kelgan,shu bilan birga juda ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni qayd qilib borish imkoniyatini bergan hisoblanadi. Dastavval insoniyatda statistik tafakkur shakllana boshlagan. Bu albatta jamiyat munosabatlari paydo bo'lgan davrlarga borib taqaladi. Davlatchilik munosabatlarining asosini albatta yer va aholini hisobga olish bilan bog'liq hisoblanadi. Chunki qadimgi davlatlar uchun yer maydonlari miqdori, milliy boyliklar miqdori, aholi sonini bilish hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan hisoblanadi. Qadimgi Xitoy,Misr, Bobilda dastlabki askarlar sonini shakllantirish uchun aholini hisobini qilish, yer maydonlarini o'lchash borasidagi jarayonlar

Published: 05.06.2026

Cite this article: Butanova Dilnoza Rustamovna (2026). Statistika fanining tarixiy rivojlanishi va xususiyatlari. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319852

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

statistikaning shakllanishi uchun zamin vazifasini bajargan. Bu davrda lekin uning ilmiy asosi yaratilmagan edi.

Bundan keyingi davrida asosan statistikaning “Davlatshunoslik”(Statusaskundi) fani negizida rivojlanish davri bo’ldi. Ushbu davrda davlatlardagi muhim faklar qayd qilib olinib, ular matnli tarzda qayd qilib borish ustun bo‘gan. Asosan Germaniyada davlatning ijtimoiy –iqtisodiy rivojlanishi ifodalash bilan shug‘ullanadigan fan sifatida rivojlanib bordi. Asta-sekin statistikaning “Davlatshunoslik” fanida ajralib mustaqil sifatida shakllanishida uning ilmiy asosi yaratilgan davr mavjud bo’lgan.

XVII asrda J.Graunt “Siyosiy arifmatika” fanini yuzaga keltirdi.Bu esa ma’lumotlarni raqamlar bilan ifodalab qayd qilish jarayonida turli hisob kitob amallarini bajarishning nazariy asosi edi.U.Petti esa uni yanada boyitib, yangi fan “Statistika” fani shakllanishiga munosib hissa qo‘shib, fanni tom ma’noda ixtirochilariga aylandi. Fan nomi etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak G. Axenvall tamonidan kiritilgan bo‘lib, lotincha “status” so’zidan olingan bo‘lib, voqea-hodisalarning holati, darajasi degan ma’nolarni anglatgan. Bundan keyingi taraqqiyoti mazkur fanning XVIII-XIX asrlarda nazariy yuksalib borishi, xususan matematik statistikaning rivojlanish jarayoni bilan borgan. Bu davrda o’rtacha qiymat, tasodifiy miqdor, dispersiya va boshqa bir qator matemarik asosi shakllantirildi va mukammal fan tizimiga erishgan statistika endi o’zining amaliy qo‘llanish davrini boshladi , ya’ni XIX-XX asrlarda iqtisodiyot,sanoat va tibbiyot va boshqa sohalarda statistika keng qo‘llanila boshladi. Bu albatta fanning amaliy hayotdagi muhim ahamiyatini e’tirof etganlikdan kelib chiqqan hisoblanadi. Va nihoyat bugungi kunda statistika barcha soha va tarmoqlarni keng miqyosda qamrab oldi. Shuningdek uning raqamli dungyoga xos tarzda takomillashdi. Ayniqsa, matematik va iqtisodiy statistika keng miqyosda rivojlanish tendensiyalarini namoyon qilmoqda. Big datalar bilan ishlashning zamonaviy shakllari keng qo‘llanilmoqda.

Statistika bu faqat raqamlar va hisob-kiob ma’lumotlaridan iborat bo’lib qolmasdan, u jamiyat hayotidagi murakkab ijtimoiy – iqtisodiy hodisa va jarayonlarni raqmlar orqali izohlash imkoni beruvchi va shuningdek, bu orqali boshqaruv munosabatlariga ko’maklashuvchi, muhim va aniq prognozlarni ishlab chiqishiga ko’maklashuvchi, fundamental fan tarmog‘i hisoblanadi.

Bunda asosan statistika yordamida ijtimoiy-iqtisodiy voqea va hodisalarni, ularning rivojlanish xususiyatlarini va qonuniyatlarini, zamon va makon bog’liqlik jihatlarini raqamlar va hisob-kitoblar bilan o‘rganiladi.

Statistikaning asosiy o’rganish jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy voqea-hodisaning ommaviylik xususiyatiga qaratiladi. Ushbu fan jamiyat hayotida dolzarb xususiyat kasb etadigan, ko‘plab subyektlar va obyektlarni qamrab oladigan jarayonlar va hodisalar o’rganiladi. Xususan, Angliya statistika maktabi asoschisilaridan biri

bo‘lgan A. Bovley tamonidan ommaviy hodisalar bu alohida tasodifiy hodisalar sifatida yuzaga chiquvchi, ammo birliklarning katta yig‘indisini tashkil qiluvchi ma’lum qonuniyatlarga amal qiladigan jarayonlar va hodisalar tushuniladi” deb ta’rif keltirilgan. Bundan ko‘rinadiki, statistika jarayonlarning qonuniyatarini aniqlash orqali kelgusi davr prognozlarini ishlab chiqish uchu asos bo‘lib hisoblanadi.

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti